

Nilufar M. TUYCHIEVA,
Teacher of the ICESCO Department
for Islamic Studies and Studying Islamic Civilization,
International Islamic Academy of Uzbekistan.
A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: nilufartuychieva79@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023-3/4

**NAJMIDDIN KUBRO ASARLARIDA
SHAYXLIK MAQOMI VA KOMIL INSON
MASALASINING YORITILISHI**

**ILLUMINATION OF THE STATUS OF
SHAIKH AND THE ISSUE OF THE
PERFECT MAN IN THE WORKS OF
NAJMUDDIN KUBRA**

**ОСВЕЩЕНИЕ СТАТУСА ШЕЙХА
И ВОПРОСА О СОВЕРШЕННОМ
ЧЕЛОВЕКЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
НАДЖМИДДИНА КУБРО**

KIRISH

Kubraviylik tariqatiga ko'ra yer yuzida qancha mavjudot bor bo'lsa Yratganga eltuvchi yo'llar ham shuncha miqdordadir. Qancha go'zal axloq bo'lsa har bir kamolotning bir bosqichidir. Bu yo'llar tasavvufda maqom deb nomlanib, solikning komilligini ta'minlovchi vostitalardir. Ma'lumki odatda solikni ruhiy jihatdan yuqori odob darajasiga eltuvchi shaxs bu shayxdir. Kubraviylikda har bir shayx valiy darajasidagi kishi bo'lmos'i muvaffaqiyatga tezroq erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvufda valiy – Allohning e'tibori, himoyasi, yordami va sevgisiga sazovor bo'lgan va Allohga qurbat hosil qilgan inson. Valiyning ikki ma'nosi bordir: valiy "foil" vaznida mubolag'ali ismi foil ma'nosida qabul qilinsa, "Allohga bo'lgan quilligida deyarli kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'ymaydigan kishi", agar valiy foil vaznining maf'ul ma'nosida ekanligi e'tiborga olinsa, "uning himoya va muhofazasini Alloh zimmasiga olgan kishi" ma'nosini anglatadi (al-Qushayriy., 2003).

Valiy – mumkin bo'lgan o'lcovda Alloh va uning sifatlarini bilgan, toatlarda bardavom bo'lgan, ma'siyatlardan ochgan, shahvat va lazzatlardan yuz o'girgan kishi (Tahonaviy, 1996.).

Valoyat so'zi Qur'onda 2 marta, valiy so'zi 24 marta, avliyo so'zi esa 62 marta, jami 86 joyda kelgan (Usmonov I., 2019).

ASOSIY QISM

Qur'oni Karimda kelgan "avliyo" so'zini anglatgan ma'nosi jihatidan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Shaytonlar insonlarning avliyolari, ya'ni do'stlari bo'lishlari. Bunday do'stlikka erishish odamiylikning eng tuban darajasiga tushish demakdir;

An'om surasining 121-oyatida Alloh shunday deydi: "Allohnning ismi zikr qilinmagan narsalarni yemanglar. Albatta, bu ish fisqadir. Albatta, shaytonlar o'z do'stlariga sizlar bilan tortishishni vasvasa qilurlar. Agar ularga itoat qilsangiz, sizlar ham mushriklardan bo'lursizlar" (A.Mansurov, 2007:189).

2. Mo'min va mo'minalarning o'zaro birlarining avliyosi, ya'ni do'sti bo'lishlari. Bu do'stlikka erishish haqiqiy mo'min-musulmon bo'lishni bildiradi.

Tavba surasining 71-oyatida shunday deyilgan: "Mo'min erkaklar va mo'mina ayollar birlariga do'stdirlar. Ular yaxshilikka buyururlar, yomonlikdan qaytarurlar, namozni to'kis ado eturlar, zakotni berurlar hamda Allohga va Uning Rasuliga itoat qilurlar. Ana o'shalarga Alloh tezda rahm qilur. Albatta, Alloh g'olib va hikmatli zotdir" (A.Mansurov, 2007:122).

3. Mo'min va taqvodor bo'lgan bandalar Allohnning avliyosi (do'sti) bo'lishlari. Bu inson uchun payg'amarlikdan keyingi eng ulug' maqomdir.

Yunus surasining 62-63-oyatlarida Alloh shunday deydi: "Ogoh bo'lingkim, Allohnning do'stlariga xavf yo'qdir va ular xafa ham bo'lmaslar" (Mansurov A., 2007:132).

4. Fiqhiy ma'noda valiy bo'lish. Oyatda hijrat qilganlarga Rasululloh (s.a.v.) ning valiy bo'lganlari, hijrat qilmaganlarga esa valiy emasliklari aytildi. Shu bilan birga musulmonlarning qarindoshlari valiy bo'lishlari ham shu ma'noda keladi.

Anfol suraning 72-oyatida Alloh shunday deydi: "Albatta, iyomon keltirgan, hijrat qilgan, Allohnning yo'lida molu jonlari bilan shijoat ko'rsatganlar va joy berib, yordam qilganlar, ana o'shalar birlariga valiydirlar. Iyomon keltirgan, ammo hijrat qilmaganlarga esa, to hijrat qilmagunlaricha, siz hech valiy (ya'ni himoyachi) bo'la olmassiz.

Аннотация. Mazkur maqolada valiylik darajasiga yetgan shayxlik maqomi haqida so'z yuritiladi. Valiylik so'zini etimologik jihatdan tahsil qilib, uning kelib chiqishi bilan bog'liq ma'lumotlarni berishga harakat qilingan. Qur'on karimda valiylik va karomat tushunchasi qanday ahamiyat kasb etishi ham ochib berilgan. Mavzuga oid Qur'on oyatlari va hadislarni ketirilgan.

Valiylik va karomat masalasi tasavvufda eng muhim mavzulardan bo'lib, u haqida deyarli barcha mutasavviflar so'z yuritganlar. Ammo turli tariqat vakillari bu tushunchalarini har xil talqin qilganlar. Jumladan, kubraviylik tariqatining asoschisi Najmuddin Kubroning ham bu masalada o'ziga xos qarashlari mayjud bo'lgan. Uning karomat bilan bog'liq fikrlari "Usuli ashara" kitobida o'z aksini topgan.

Kubro shayxlik maqomiga erishgan kishining sisfati va fazilatlarini bayon qilar ekan, ikki ahamiyatlik jihatga qarash lozimligini uqtiradi: biri muridning mol va vujud bilan xizmat ko'rsatishi bo'lsa, ikkinchisi, shayxning murid qobiliyatiga yarasha ruh va fayz bahsh etmog'idir. Bu narsalar muridni yetulklikka erishishini tezlashishiga xizmat qiladi.

Najmuddin Kubro shayx ta'lim berish uchun qanday sifatlarga ega bo'lishini sanab o'tadi. Shuningdek ayrim illatlardan xoli bo'lish zarurligini ham ta'kidlaydi. Shayxlikdan murod bu Yaratganning rizoligiga erishish. Uni topish yo'llarini shogirdlarga ko'rsatib berish. Jamiyatda go'zal xulqli kishilar safini kengaytirish uchun aynan ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda ish ko'rish samarali vosita ekanini ko'rsatib bergen. Bularning barchasi Najmuddin Kubro tomonidan uning kitoblarida qat'iy ko'rsatilgan.

Калит сўзлар: avliyo, karomat, taqvo, xavf, rajo, nafs, uzlat, shayx

Abstract. The article talks about the status of a sheikh who reached the level of a guardianship. An attempt was made to analyze the word Wali etymologically and provide information about its origin. The importance of the concept of guardianship and karamah is also revealed in the Holy Qur'an. Qur'anic verses and hadiths related to the topic are quoted.

The issue of guardianship and karamah is one of the most important topics in Sufism, and almost all mystics spoke about it. However, representatives of different sects interpreted these concepts differently. In particular, Najmuddin Kubra, the founder of the Kubrawiyya atriqah, had his own views on this issue. His thoughts on karamah are reflected in the book "Usuli Ashara".

While describing the qualities and virtues of a person who attained the status of sheikh, Najmuddin Kubra emphasizes the need to look at two important aspects: one is the murid's service with his wealth and body, and the second is the sheikh's giving the murid the spirit and favor according to his abilities. These things serve to accelerate the murid's maturity.

Najmuddin Kubra enumerates what qualities a sheikh should have for teaching. He also emphasizes the need to be free from certain vices. The aim of the sheikhdom is to show the disciples the ways to attain the Creator's pleasure and find Him. He showed that working based on the mentor-disciple tradition is an effective tool for increasing the number of good-natured people in society. All this is clearly stated by Najmuddin Kubra in his books.

Keywords: saint, virtue, piety, khawf, raja, nafs, uzlat, sheikh.

Аннотация. В данной статье автор приводит сведения о статусе шейха, достигшего уровня святого (вали). Предпринята попытка представить информацию о происхождении слова вали на основе его этимологического анализа. Раскрыта важность понятий вали и карамат, приведенных в Священном Коране. Автор привёл примеры аятов из Корана и хадисы, относящиеся к теме.

Вопрос святости и карамата — одни из важнейших тем в суфизме, и о них говорили почти все суфии. Но представители разных тарикатов трактовали эти понятия по-разному. В частности, у Наджмиддина Кубро, основателя тариката кубравийя, были свои взгляды на этот вопрос. Его понятия о карамате отражены в книге "Усули ашара".

Описывая качества и достоинства человека, достигшего статуса шейха, Кубро подчеркивает необходимость рассмотрения двух важных аспектов: первый — это служение мюрида богатством и телом, а второй — дарование духа и благодати шейха соответственно способностям мюрида. Эти вещи служат ускорению достижения совершенства мюрида.

Наджмиддин Кубро перечисляет, какими качествами должен обладать шейх для преподавания. Он также подчеркивает необходимость быть свободным от некоторых пороков. Цель шейха — добиться довольства Творца. Указать учащимся этот путь. Он показал, что работа по традиции наставник-ученик является действенным средством расширения рядов людей с прекрасным нравом в обществе. Всё это ясно указано Наджмиддином Кубро в его книгах.

Ключевые слова: святой (друг Божий), сверхъестественное деяние, благочестие, богообязненность, надежда, душа, единение, суфийский наставник (шейх).

Agar ular sizdan dinda yordam so‘rasalar, yordam bermog‘ingiz vojib. Faqat siz bilan o‘rtalarida ahdnama bor qavm ziddiga emas. Alloh nima qilayotganingizni ko‘rguvchi zotdir” (A.Mansurov, 2007:114).

5. Baytullohga mo‘min-musulmonlarning “avliyo”, ya’ni mutasaddi, bo‘lishlari. Oyatda kofirlarning u yerga mutasaddi bo‘lishlari mumkin emasligi aytildi.

Alloh taolo Anfol surasining 34-oyatida shunday deydi: “Nega endi Alloh ularni azoblamas ekan. Ular Masjidul Haromdan to‘smoqdalar. Holbuki, Uning valiylari emaslar. Uning valiylari taqvodorlardan o‘zga hech kim emas. Lekin ko‘plari bilmaslar” (A.Mansurov, 2007:111).

6. Bandalarning Allohnini qo‘yib, bir-birini “avliyo” – Iloh qilib olishlari. Oyatda bunday bandalarga alamli azob borligi aytildi.

Kahf surasining 102-oyatida “Yoki kufr keltirganlar meni qo‘yib bandalarimni valiy-iloh qilib olishni gumon qildilarmi?! (A.Mansurov, 2007:195).

“Allohnинг do‘sti” ma’nosidagi “Valiy” so‘zi Qur’onda ikki xil ma’noda keladi:

1. Alloh uni doimo kuzatib turadigan, nazorat qiladigan, O‘z himoyasida saqlaydigan, bir on bo‘lsa-da o‘z holiga tashlab qo‘ymaydigan kishi.

“Albatta, mening valiyim kitobni nozil qilgan Allohdir. U solihlarni valiy (do‘st) tutar” (A.Mansurov, 2007:107).

2. Toat-ibodatlari natijasida Allohga yaqin bo‘lgan kishi.

Bunga Qur’oni Karimdagagi quydagi oyatlarni misol qilib keltirish mumkin:

“Alloh esa taqvodorlarning do‘stidir” (A.Mansurov, 2007:342).

“Ogoh bo‘lingizki, Allohnинг valiylariga xavf yo‘qdir va ular g‘amgin ham bo‘lmaslar” (A.Mansurov, 2007:132).

“Alloh iymon keltirganlarning do‘stidir. Ularni zulmatdan nur sari chiqaradi” (A.Mansurov, 2007:30).

Bundan tashqari, Alloh taolo Qur’oni Karimda O‘zining ma‘lum bir bandalariga valiy ekanini, ba’zi bir bandalar U zotning avliyolari ekanini aytib o‘tgan (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2019:296).

Shuningdek, Rasululloh (s.a.v) ning quydagi hadislariga asoslanib o‘zlarining valiylik haqidagi qarashlarini izohlaydilar:

“Alloh bandalari orasida shunday kishilar borki, ular na payg‘ambar va na shahid, ammo qiyomat kunida uning maqom-u darajalarini ko‘rgan payg‘ambarlar va shahidlar ularga havas

qiladilar” (At-Termiziyy). Bularning kimligini so‘ragan sahabalarga Rasululloh (s.a.v) bunday javob bergenlar: “Bular shunday kishilarki, oralarida qarindoshlik aloqasi bo‘lmasa ham, bir-birlari bilan oldi-berdilari bo‘lmasa ham, bir-birlarini Alloh uchun yaxshi ko‘radilar. Ularning yuzlari munavvar va nurli minbar uzra o‘tiradilar. Odamlar qo‘rquvga tushganlarida ular qo‘rqmaydilar, odamlar xavotirlanganlarida ular xavotirlanmaydilar”.

Rasululloh (s.a.v) bu so‘zlarni aytgach, quydagi oyati karimani o‘qiganlari naql qilinadi: “Ogoh bo‘lingizki, albatta, Allohnинг valiylariga xavf yo‘qdir va ular g‘amgin ham bo‘lmaslar”.

Abu Hurayra (r.a) dan rivoyat qilingan hadis: “Rasululloh (s.a.v): “Alloh taolo bunday deydi”, - dedilar:

“Kimda kim menga do‘st bandamga dushmanlik qilsa, Men unga urush e’lon qilaman! Bandam mening uchun eng mahbub bo‘lmish Men unga farz qilgan narsachalik Menga yaqin bo‘lolmaydi, agar bandam nafl toat-ibodatlar bilan menga yaqin bo‘lmoqqa davom etsa, Men uni yaxshi ko‘raman. Men agar biror bandamni yaxshi ko‘rib qolsam, uning eshitmog‘i uchun qulqoq, ko‘rmog‘i uchun ko‘z, ushlamog‘i uchun qo‘l, yurmog‘i uchun oyoq bo‘laman, u Mendan biror narsa tilasa, tilaginini ravo qilaman, Mendan panoh tilasa, panoh beraman. Men hech qaysi ishda mo‘min bandamni jonini olishda ikkilangandek ikkilanmayman, u o‘limni yoqtirmaydi, Men uning qiyonalishini yoqtirmayman” (Al-Buxoriy, 2008).

Qur’on va hadisda kelgan valiylar aslida kimlar, ular qanday sifatlarga ega bo‘ladi, ular bu darajaga qanday ega bo‘ladilar kabi savollarga olimlar, sufiylar javob qidirishgan.

Tasavvufiy manbalarida valiy – Allohga iymon keltirgan, Uning buyruq-amrlarini so‘zsiz bajarib, qaytariqlaridan qaytadigan, tili doimo zikrda yuradigan, bu dunyo matohlaridan zuhd qilgan, havo-yu nafsi o‘ziga bo‘ysundirgan, faqatgina oxirat qayg‘usida yashaydigan solih inson. Uning kuchli taqvosи sababli Alloh taolo uni yaxshi ko‘radigan, xavf-xatardan asraydigan, doimo O‘z himoyasida saqlaydigan yaqin do‘stiga aylanadi.

“Ular iymon keltirganlar va taqvo qilganlardir” (Mansurov, 2007:132).

Ushbu oyatda valiyning sifati namoyon bo‘lgan. Avvalo, valiy bo‘lish uchun iymon keltirgan mo‘min bo‘lishi zarur, so‘ngra mana shu iymonida sobit turgan holda Allohnинг amrlariga bo‘ysunishi va taqvoda bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Lekin bu taqvoda bardavom bo‘lish sharafi hammaga ham nasib qilavermaydi. Alloh muhabbatiga erishish yo‘lida ko‘plab sinovlarga duch kelishi, nafsiga qarshi katta jihod olib borishi, shaytonning nayranglariga aldanmasligi, turli balo-dardlarga sabr qilishiga to‘g‘ri keladi. Bu uzoq va murakkab yo‘ldan o‘tgan insonni esa katta mukofotlar kutayotgan bo‘ladi:

“Ularga dunyo hayotida ham, oxiratda ham xushxabar bor. Allohning so‘zlarini o‘zgartirish yo‘q. Ana o‘sha buyuk yutuqdir” (Mansurov, 2007:132).

Ibn Hajar Asqaloniy valiyalar haqida shunday deganlar:

“Valiy Alloh taoloni biluvchi, Uning toatida bardavom bo‘luvchi va U zotga ixlos ila ibodat qiluvchidir” (Yusuf, 2019. 296).

Islomiy ilmlarda valiy va valoyat masalasi tasavvufiy asarlardan ayri bir masala sifatida e’tibor qilinib, bu mavzuga doir alohida kitoblar yozilgan. Bu asarlarda valiyning turli ta’riflari berilgan.

MUHOKAMA

Kubraviylik tariqatining asoschisi Shayx Najmaddin Kubro, to‘liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Abuljannob Xivaqiy Xorazmiy bo‘lib, 1145-yilda Xiva shahrida tavallud topganlar. U kishiga Najmaddin (din yulduzi), valiytarosh (valiylar tarbiyalovchi), Abuljannob (taqvodorlar otasi), Shayx Kubro (ulug‘ shayx) kabi unvonlar berilgan.

Najmaddin Kubro tahminan o‘n olti-o‘n yetti yoshlarida ilm olish maqsadida Xorazmni tark etib, Eron, Misr, Shom, Iroq mamlakatlariaga safarlar uyuştirgan. Shayxning shogirdi Rukniddin Alouddavlarning aytishicha, Najmaddin Kubro Hamadon shahrida katta bir alloma huzurida hadis ilmini o‘rganayotgan vaqtida Iskandariya shahrida “Oliy sanadlar bilan hadis biladigan” boshqa bir muhaddis borligini eshitib, Hamadondagi ustozidan ruxsat olib, Iskandariyaga jo‘naydi va bir oy u yerda qoladi, ilmni puxta egallaydi va ustozidan ijoza olib qaytadi.

Shayx Najmaddin Kubro 1185-yilda Xorazmga qaytib keladi, ya’ni u yigirma besh yildan ortiq umrini ilm olish uchun boshqa davlatlarda o‘tkazgan. Xorazmga qaytgach, u yerda katta xonaqoh qudirib, shogirtlar tarbiyalay boshlaydi va shu tariqa, yangi bir maktab – o‘zining kubraviya silsilasiga asos soladi.

Uning qo‘lida yuzlab buyuk valiyalar yetishib chiqdilar. Muridlari orasidan Shayx Majdiddin

Bag‘dodiy, Shayx Sayfiddin Boharziy, Shayx Sa’diddin Hamaviy, Shayx Rukniddin Alauddavla singari musulmon ummatida mashhur nom qozongan valiy zotlar tarbiyalangan.

“Najmaddin Kubroga ko‘ra shayx Haqqa vosil bo‘lgan zot komil, murid tarbiyasiga qodir bo‘lishi shart. Aks holda suluk nihoyasiga yetmaydi. Murid ora yo‘lda qolgan yo‘lovchiga o‘xshaydi. Shayx muridiga shaxsan rahnamolik qilishi kerak. Murid uzlat hayoti davomida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tishi uchun shayxidan ajralmasligi lozim. Buyuk sufiyalar sayru sulukning ikki jihatni borligini ta’kidlaydilar. Najmaddin Kubro nafaqat yetuk shayx, mashhur sufiy balki, tasavvuf nazariyotchisi hamdir. Ulug‘ shayx amaliy faoliyati xulosalarini “Favoyih al-Jamol va favotih al-jalol”, “al-Usul al-ashara” nomli kitoblarida jamlab, tasnif etgan. Hoji Xalifa Najmaddin Kubroning arabcha asarlari sonini sakkizta deb ko‘rsatadi. Undan tashqari, shayxning fors tilida yozgan “Fi odob as-solikiyn” nomli risolasi ham mavjud.

Najmaddin Kubro asarlarining ko‘pida valiy va uning sifatlari qanday bo‘lishi lozimligi yoritilgan. U o‘zining “Usuli ashara” nomli asarida valiy haqida shunday deydi: “Ma’lum bo‘lmoqdaki, payg‘ambarlar, muqarrablar, siddiqlar deya tanilgan buyuk valiylar doimo Unga boqishdan tug‘ilgan huzuri zavq bilan to‘lib toshgandirlar. Chunki ular “Qoba qavsayn”da jam’ va farq, sakr va sahv hollarini ayni bir paytda yashaydilar. Ular xilma-xil shakllar va turfa-turfa hollar ila hamisha mushohada ichida kun kechiradilar. Maqsad muddaolari esa tajalliy Mutlaqdir. Bunga Haqning tajallisi umumiyligi va ta’siri keng qamrovli emasligini yaxshi bilmoq kerak. Insonda shunday qobiliyat va quvvatlar borki, u xalq bilan jisman munosabatlarini davom ettirarkan, ayni vaqtida ko‘ngli va mushohada jazbasi ila istig‘roq holini yashamog‘i mumkindir (Kubro, Usul al-ashara , 2005:3).

Kubro shayxlik maqomiga erishgan kishining sifati va fazilatlarini bayon qilar ekan, ikki ahamiyatlik jihatga qarash lozimligini uqtiradi: biri muridning mol va vujud bilan xizmat ko‘rsatishi bo‘lsa, ikkinchisi, shayxning murid qobiliyatiga yarasha ruh va fayz baxsh etmog‘idir” (Kubro, Usulul ashara, 2005:7).

Najmaddin Kubro mana shu o‘rinda muhim bir narsaga katta ahamiyat qaratgan. Ya’ni, shogirdga vazifa berganda uning qobiliyati, imkon darajasi va salohiyatini inobatga olishi muhimligini ta’kidlagan. Ustoz-shayx tomonidan biron topshiriq berilganda

murid tamoman bajarmaguniga qadar unga boshqa vazifa berilmagan. Chunki, sifat ta'minlanishi uchun buyurilgan ish to'liq bajarilishi talab etilgan.

Shayx tanlashda ikki uslubdan biri ixtiyor etilgan: 1. Shogird o'z nafsin tarbiyat qilish umidida bosh egib kelgan ustoz. Shogird ustoz hayot vaqtida uni tark etmaydi va boshqa ustoz qidirmaydi. 2. Duo istab, maqtalgan bir shayxning ziyyoratini qilmoq. Bunda murid doimiy ta'lif olishni qasd etmaydi, balki, vaqtinchalik ruhiy quvvat olish maqsadida boradi. Najmuddin Kubro shu o'rinda xushyor bo'lishga chaqirgan holda soxta shayxlarga aldanib qolmaslikka chaqiradi. Zamonasida ayrim kishilar tomonidan shayxlik da'vosi qilinsa-da, aslida ular oddiy sufiylikka ham arzimasligini ta'kidlaydi. Ayrimlari hattoki valiylik da'vosini qilayotganlaridan shikoyat qiladi. Valiy bo'lishning shartlari va mas'uliyati borligini alohida ta'kidlaydi.

Shayxni ga'ssolga o'xshatar ekan, murid o'z ixtiyorini ishonib topshirgan kishi sifatida yuksak ehtiromga loyiq bo'lishi karakligini qayd etadi. Muridning chirkinliklarini tozalashga mas'ul shayx o'zi valiylik martabasiga erishgan bo'lsa, shogirdi ham tezroq ko'zlangan maqsadga yetadi.

Shuning uchun orifning nafasi tasbeh, uyqusi ibodat, uning uchun g'aflat yo'qdir. U har doim bedor, basirati har lahma ochiqdir. Quyidagi oyatda ham shunga ishora bor: "Uning oyatlaridan (yana biri) – kechasi va kunduzi uvlashlaringiz hamda (kunduzlari) Uning fazlu marhamatidan (rizqu ro'z) istashlaringizdir. Albatta, bunda anglaydigan qavm uchun oyat — iibratlar bordir" (A.Mansurov, 2007:292). Bir hadisda ham: "Insonlar uyqu holidadirlar. O'lgachgina uyg'onadilar" deyilgan. Ushbu hadisda nazarda tutilgan insonlar oddiy xalq tabaqasidirki, ular Haqqa tomon umumiy va mutlaq yagona bir yo'ldan borishni istaydilar. Holbuki, asosiy maqsad xususiy va muqayyad bir yo'1 bilan Allohga yetishmoqdir.

Ya'ni bu yerda valiy zotlarning asosiy muddaosi Haqning roziligiga erishish bo'lib, bu yo'lda ular kun-u tunlarini bedor bo'lib, ibodatda o'tkazadilar. Har nafaslarida Allohnini yod etib, zikr etadilar. Yuqoridaq hadisdagi kabi ular oddiy uyqudagisi xalqdan farqli o'laroq, o'lmadan uyg'ongan insondirlar.

"Usuli ashara"ning "zuhd" bobida valiy darajasiga yetishish uchun zuhdning ahamiyatini, insonning xoh oz bo'lsin, xoh ko'p bo'lsin, ko'ngilga manzur bo'ladigan har qanday dunyo matohlaridan yiroq bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi (Kara, 2007).

Ushbu bobda Shayx Akbar Muhyiddin binni Arabiy (vaf. 638/1240) Najmuddin Kubroga valiy zot uch narsadan saqlanishi zarurligini tavsiya qilgan. Ular quyidagilar:

1. Rango-rang liboslar kiymoq. Vahdat orzusi va talabidagi kishi kiyimida ham vahdatu birlik bo'lmog'i lozim. Shu bois valiylar nazdida ham surat ila ma'no o'zaro uyg'un bo'lishi shart.

2. Asoga suyanmoq. Bu mosivoga, e'timod va ishonchga ishoratdir. Holbuki, bir yog'och sinig'iga ham inonmaslik lozim. Narsaga emas, balki Allohga e'timod qilish kerak.

3. Nafs hohishiga erk bermaslik.

NATIJA

Ta'rifdagi "maqom" so'zi insonlar nazdidagi izzat va husni qabulni anglatadi. Bu o'rinda, albatta, moddiy bir maqom va mavqe' sohibi bo'lishga hojat yo'q. Xalq orasida shuhrat taratish va insonlar bilan munosabat ham ana shunga daxldordir.

"Usuli ashara"ning "Qanoat" bobida esa bir valiy zotning hikoyasi keltiriladi. Valiylardan biri ziyofat bergenida mingta sham yoqibdi. Mehmonlar buning isrofligini aytishganida, mezbon: "Unday bo'lsa, o'chiring" deydi. Yig'ilganlar shamlarni o'chirishga xarchand urinmasinlar, ularni o'chira olmabdilar. Buni ko'rgan xonardon sohibi: "Shamlarni o'zimiz uchun emas, Haq uchun yoqqan edik. Bu isrof emasligi uchun ham ularni o'chira olmadingiz. Zero, Haqning chirog'ini va nurini hech kimsa so'ndirolmas" deya: "Ular Allohnинг nurini og'izlari (ya'ni behuda gaplari) bilan o'chirmoqchi bo'lurlar. Alloh esa garchi kofirlar istamasalar-da, O'z nurini (ya'ni dinini) to'la (ya'ni har tarafga) yoyguvchidir" (Mansurov, 2007:390) oyatini o'qigan.

Valiylik suvidan maqsad ilohiy fayzdir, inson bu doira ichiga kirmaguncha o'sha fayzni ko'nglidan o'tkaza olmaydi. Bunda nazarda tutilgan narsa valoyati omma emas, balki valoyat va valoyati xossadir. Qur'oni Karimni faqat pokiza bo'lganlar qo'liga ola bilganidek, ma'nani nopolklar ham ilohiy sirlarga yaqinlasha olmaydilar. Namoz o'qish uchun tahorat va g'usl nechog'lik lozim bo'lsa, tasavvufiy hayotda ham botiniy soflik va dunyodan qo'l siltash shu darajada zarurdir. Mana shu ma'naviy poklik uchun valiylik suvi lozim. Shayxning muridga qalbiy ilmlarni o'rgatishi esa ana shunday kirlardan soflanishiga sabab bo'ladi.

"Doimiy zikr" bobida esa, Najmuddin Kubro, Payg'ambarlarning va buyuk valiylarning oddiy

munosabatlari ham zikr ekanini ta'kidlab, shunday deydi: "Allohdan boshqa har narsani unutib, faqat Uni zikr etmoqqa davomli zikr deyiladi. Alloh taolo: "...Unutib qoldirgan vaqtingizda Parvardigoringizni zikr qiling..." (A.Mansurov, 2007) deya marhamat qilgandir. Jumladagi unutish bir o'lik misoli Undan boshqa butun borliqlarni va narsalarni unutmoqni anglatadi.

Chunki ikki zikr aslo bir joyda mujassam bo'lmaydi. Ham dunyo bilan bog'liq ishlarni, ham Allohni zikr etish imkonsizdir. Agar bunday holat yuz bersa, zikri muttasil (bir-biri bilan birlashgan va doimiy zikr) emas, balki zikri munqate (uzuq-yuluq va kesik masofali zikr) qilingan bo'ladi va qulligimizning darajasi ham shu nisbat bilan noqis va qusurli bo'ladi. Shu bois ham Oisha onamiz Rasululloh holini so'raganlarga: "U zot har doim zikr qillardilar" deya javob bergenlar. Payg'ambarlarning oddiy munosabatlari ham zikr hisoblanadi. Chunki ular barcha muomala va amallarida Haq bilandirlar.

Zikrdan maqsad esa aslo til harakati emas, balki qalb ogohligidir. Bundagi davomli zikrdan maqsad ham xilvat ahlining tildagi doimiy zikridir. Muddao esa qalbiy zikrning bardavomligini ta'minlashdir. Til zikrining ovoz (zikri jahriy) chiqarilib qilinishida buyuk ta'sirlar bor. Ovozli zikrdan maqsad uni Allohga emas, balki, ko'ru kar, nafsga eshittirishdir. Chunki Alloh uchun zikrning sadoli va sadosiz, uzoq va yaqinligi ahamiyatsizdir. Zikri jahriyga qarshi bo'lib, uni yoqtirmaganlar tasavvufiy maqomlarning hollarini anglay olmaganlar va bexabarlardir. Valiy zot darajasiga erishish uchun doimiy zikr katta ahamiyatga ega.

Najmiddin Kubro "Usuli ashara"ning "Rizo" bobida: "Rizo – bir marhumning taslimiyati misoli nafs roziligidan ayrilib, Parvardigorining hech bir azaliy hukmiga e'tiroz qilmay, munoqasha qilmasdan, barcha ishlarini Uning abadiy tadbirlariga havola qilish va shu tariqa Uning rizosiga erishish demakdir" (Kubro, Usul al-ashara, 2005:14) deydi.

Basirati ochiq bo'lgani bois orif xalq hollarini anglaydi, ammo xalq bundan bexabar qoladi. Farosat ruhning ilohiy bir quvvat bilan mulohazayu tafakkursiz g'aybiy ma'nolarni tushunish hisoblanadi, bunga farosati aqliyya, kashfiyya va ilohiyya ham deyiladi.

Solik moddadan ma'noga intiqol etadi va ushbu farosat uni aslo adashtirmaydi. Bundan boshqa farosati tabiiyya ham bor, uning adashtirishi ehtimoldan xoli emas. Farosat sohiblarining martabalarini esa to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Imon. Keng ma'noda barcha mo'minlarning holidir va daraxt guliga o'xshaydi.

2. Valoyat. Xos mo'minlarning sifatidir. Bu martaba ehsan martabasi deb ham nomlanadi. Daraxtning mevasiga o'xshaydi, chunki imon, ilm va amali solihdan maqsad mushohada maqomiga yuksalmoqdir. Zotan, daraxt ham mevasi uchun ekiladi.

3. Nubuvvat. Axosul xavvos — xoslarning xosi martabasi. U mevaning o'zi kabitidir.

4. Risolat. Birinchi va ikkinchi martaba kasbiy, ya'ni mujohada va g'ayrat bilan qo'lga kiritiladi. Keyingi ikkitasi esa vahbiy, Allohning lutfidir.

XULOSA

Kubraviylik tariqatida nabiyning valiydan ustun bo'la olmasligini, uning, ya'ni, nabiyning soyasida va unga itoat etgan holda valiy darajasiga erishishi mumkinligini, valoyatning asl mohiyatini nubuvvat va risolatdan ajratib berib, valoyat darajasi ushbu ikkisidan yuqori bo'la olmasligi o'rganildi.

Kubraviylikda valiylar va ularning karomatlari xususida ko'plab fikrlar va asarlar yozilgan bo'lib, Valiytarosh nomi bilan tanilgan Najmaddin Kubro ham Allohning do'stlari qatoridan joy egallashga mayassar bo'lish uchun banda qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligini o'z asarlarida bayon etgan.

Najmaddin Kubro "Favoih al-jamol" kitobida solikning shayxga robita qilmog'i masalasi yoritilgan bo'lib, shogird tomonidan ustozga yuksak ehtiromgina uning maqsadlarini oson amalga oshishini ta'minlaydi deb hisoblaydi. Xatto biron kitob yozmoqchi bo'lsa ustoz bilan maslahatlashib, undan duo olib keyin bu isjga kirishish lozimligi eslatib o'tiladi. Zero, tariqat yo'lliga kirish arafasida solikning qalbi mutlaqo hasta va g'ofillikka moyil edi. Shayxi uni bu kasallikdan qutqarish uchun ko'p tadbirlarni qilgan. Bu urinishlar esa ustozning ko'p yillik mehnati samarasidir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdul Karim al-Qushayriy. (2003). Qushayriy risolasi. Iroq: Dor al-kitob al-arabiyy.
2. Tahnaviy. (1996). Kashshofu istilohatil funun. Livan: nashriyot ko'sratilmagan.
3. Usmonov I., Faxriddinov Z. va boshqalar. (2019). Tasavvufga kirish. Toshkent: "Yosh kuch".
4. Abdulaziz Mansurov. (2007). Qur'on Karim ma'nolari tarjimasi. An'om surasining 121-oyat / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. Toshkent: Toshkent Islom universiteti.

5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent: “Hilol-Nashr”.
6. Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra at-Termizi. (yili ko'rsatilmagan). Al-Jome as-sahiyh va huva sunan at-Termiziy. T. 4. Kitob az-zuhd. (2390). Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
7. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. (2008). Sahihi Buxoriy: Al-jome as-sahih (Ishonarli to'plam): 2 kitob / (Riqoq) Latif so'zlar kitobi (6502). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. Najmuddin Kubro. (2005). Usul al-ashara. Toshkent: O'zbekiston.
9. Йылмаз Х.К. (2007). Тасаввұф и тарикаты. Москва: Сад.
10. Караматов Х.С. (1991). Аскетические и суфийские течения в Хорасане // из истории суфизма. // Сборник статей. –Ташкент: Фан.
11. Ислам на территории бывшей Российской империи. (2006). Энциклопедический словарь. Том I. М.: Наука.
12. Абашин С.Н., Бобровников В.О., Огудин В.Л. и др. (2003). Подвижники ислама: Культ святых и суфизм в Средней Азии и на Кавказе: Сборник (сост. Абашин С.Н., Бобровников В.О.).
13. Абдуль-Кадыр Иса. (2004). Истина суфизма (пер. с араб. Саадуева М.-Р.) М: ИД Ансар, 288 стр.,
14. Ал-Газали, Абу Хамид. (1980). Воскрешение наук о вере (Ихия улум ад-дин) Избранные главы. / Пер. с араб., иссл. и comment. В.В.Наумова серия Памятники письменности Востока М. ГРВЛ.
15. Александрова Н. Э. (2002). Суфийское братство Гюлшанийа. СПб: Петербургское Востоковедение.
16. Арберри А. (2002). Дж. Суфизм. Мистики ислама. Серия: Фонд духовной культуры мира Издательство: Сфера.
17. Акимушкин О.Ф. (2004). Средневековый Иран. Культура история филология. Санкт-Петербург.: Наука.
18. Бартольд В.В. (1963). Сочинения. Москва: Восточная литература.
19. Usmon Turar. (1999). Tasavvuf tarixi. Toshkent: Istiqlol.
20. Shayx Aziziddin Nasafiy. (1992). Komil inson. Tehron: Tehron nashri.
21. Vol. 4. Kitab az-zuhd. (2390). Beirut: Dar al-kutub al-ilmiyya.
7. Abu Abdullah Muhammad ibn Ismoil Al-Bukhari. (2008). Sahihi Buxari: Al-jami' as-sahih: 2nd book / (Riqaq) Book of Pleasing words (6502). Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. Najmuddin Kubra. (2005). Usul al-ashara. –Tashkent: O'zbekiston.
9. Yilmaz X.K. (2007). Tasavvuf i tarikati. Moscow: SAD.
10. Karamatov X.S. (1991). Asketicheskiye i sufistskiye techeniya v Khorasane // iz istorii sufizma. // Sbornik statey. –Tashkent: Fan.
11. Islam na territorii bivshey Rossiyskoy imperii. (2006). Ensiklopedicheskiy slovar. Vol I. Moscow: Nauka.
12. Abashin S.N., Bobrovnikov V.O., Ogudin V.L. i dr. (2003). Podvijniki islamu: Kult svyatых i sufizm v Sredney Azii i na Kavkaze: Sbornik (sost. Abashin S.N., Bobrovnikov V.O.).
13. Abdul-Kadir Isa. (2004). Istina sufizma (per. s arab. Saaduyeva M.-R.) Moscow: ID Ansar.
14. Al-Gazali, Abu Hamid. (1980). Voskresheniye nauk o vere (Ihya ulum ad-din) Izbrannyye glavi. / Per. s arab., issl. i komment. V.V.Naumova seriya Pamyatniki pismennosti Vostoka M. GRVL.
15. Aleskerova N.E. (2002). Sufiyskoye bratstvo Gyulshaniya. SPb: Peterburgskoye Vostokovedeniye.
16. Arberri A. (2002). Dj. Sufizm. Mistiki islamu. Seriya: Fond duxovnoy kulturi mira Izdatelstvo: Sfera.
17. Akimushkin O.F. (2004). Srednevekoviy Iran. Kultura istoriya filologiya. Sankt-Peterburg.: Nauka.
18. Bartold V.V. (1963). Sochineniya. Moscow: Vostochnaya literatura.
19. Usmon Turar. (1999). Tasavvuf tarikhi. Tashkent: Istiqlol.
20. Azizuddin Nasafi. (1992). Komil inson. Tehran: Tehran edition.

REFERENCES

1. Abdul Karim al-Qushayri. (2003). ar-Risala al-Qushayriyya. Iroq: Dar al-kitab al-arabi.
2. Tahanawi. (1996). Kashshafu istilahatil funun. Lubnan.
3. Usmonov I., Faxriddinov Z. va boshqalar. (2019). Tasavvufga kirish. Tashkent: “Yosh kuch”.
4. Abdulaziz Mansurov. (2007). Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi / Translated and interpreted by Abdulaziz Mansur. Tashkent: Toshkent Islom universiteti.
5. Sheikh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Tasavvuf haqida tasavvur. Tashkent: “Hilol-Nashr”.
6. Abu Isa Muhammad ibn Isa ibn Savra at-Tirmidhi. (the year of publication is not indicated). al-Jami' as-sahih.

